TOSHKENT SHAHAR MIROBOD TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 3 - oktabr 457-14-199-Q/22 Mirobod tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-otyabrdagi O'RQ-642-sonli “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son; 02.04.2021-y., 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son) 38-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 15-otyabrdagi O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son) 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017 y., 09/17/965/0393-son) muvofiq, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2023-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2023 yilda ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ 642-sonli “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasiga asosan, tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori 1-ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni 1626 nafarni tashkil etadigan, shu jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 48 ta;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 983 ta;

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 208 ta;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 155 ta;

safarbarlik chaqiruvida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 127 ta;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 91 ta;

odam savdosi qurbonlari uchun 14 ta ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha

majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3163) Buyrug’iga asosan, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratilishi inobatga olinsin.

5. Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2022 yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foiziga qo‘yilishi va tayyorligi ta’minlansin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismiga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va ga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni

ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

7. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (X.M.Shukuraliyev) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarning e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Tuman Matbuot xizmati:

Mazkur qaror “Toshkent oqshomi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Tashkilotlar rahbarlari tomonidan mazkur qarorni to‘liq bajarish yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatilsin.

10. Mirobod tumani hokimining 2021-yil 21-oktyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida ”gi 204-14-199-Q/21-son qarori 2022-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qaror 2023-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Mirobod tumani hokimining birinchi o‘rinbosari A.Salaydinov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.A.Pulatov**

Mirobod tuman hokimining
2022 yil 3 oktabrdagi
457-14-199-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Mirobod tumani 2023 yil uchun "kvota" Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va mehnat bozorida
teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish bo‘yicha
MA’LUMOT

№	INN	Korxona nomi	Xodimlar soni	Korxonada xaqiqatan yaratilgan maxsus ish o‘rinlari	Nogironlar uchun	Ko‘p bolalilar	Pensiya yoshiga yetib qolganlar uchun	Qo‘shin safidan qaytganlar uchun	O‘quv yurtini bitiruvchilar uchun	Jazo muddatini o‘tab qaytganlar uchun	Odam savdosi jabrlanuvchilar
1	201052713	"TOSHKENT SHAHAR SUV TA`MINOTI" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	4484	42	2	5	5	4	15	10	1
2	308743271	"O`ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AKSIYADORLIK JAMIYATI	3651	98	1	27	7	6	51	5	1
3	204291478	"TOSHKENT MINTAQAVIY TEMIR YO'L UZELI" UNITAR KORXONA	2215	57	1	5	5	4	39	2	1
4	305484748	"NEXT GENERATION PRODUCT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	2151	95	1	12	1	7	71	3	
5	201052490	"TOSHKENT SHAHAR ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	1911	25	1	2	2	2	15	2	1
6	207321832	"TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI	1493	36	1	2	4	3	24	1	1
7	200829053	"ALOQABANK" AKSIYADORLIK JAMIYATI	1479	31	1	3	3	2	21	1	
8	201052000	"O`ZAERONAVIGATSIYA MARKAZI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	1379	32	1	2	2	2	24	1	
9	201053774	"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI" DAVLAT MUASSASASI	959	38	2	3	3	2	26	1	1

10	201051951	"O`ZBEKISTON TEMIR YO`LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	938	38		4	3	2	27	1	1
11	201897254	"RUHIY KASALLIKLAR KLINIK SHIFOXONASI"	878	26	1	5	1	1	15	3	
12	204447036	"VERIF" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	742	39	1	4	4	4	24	1	1
13	201799978	"TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MARKAZINING KO`P TARMOQLI KLINIKASI"	728	48	1	5	5	5	31	1	
14	201589828	"DAVLAT AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI ASAKA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	687	26	1	3	4	3	14	1	
15	200981365	O`Z.TEMIR YO`LLARI MARKAZIY POLIKLINIKASI	612	32	1	2	2	2	24	1	
16	204663354	"IST TELEKOM " MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT SHAKLIDAGI QO`SHMA KORXONA	601	27	1	4	2	3	15	2	
17	201053403	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON DAVLAT AKADEMIK KATTA TEATRI	589	17	1	2	2		10	1	1
18	203607858	"O`ZTEMIRYO`LKONTEYNER" AKSIYADORLIK JAMIYATI	587	45	1	5	5	3	29	1	1
19	201363967	"TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	542	43	1	4	3	4	29	2	
20	204065852	TOSHKENT SHAHRIDAGI XALQARO VESTMINSTER UNIVERSITETI	540	28	1	4	3	3	15	1	1
21	201992249	"MIROBOD TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" JAMOAT BIRLASHMASI	520	33		3	3	2	12	12	1
22	306153834	"EPAM SYSTEMS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	476	26		2	2	2	20		
23	201121254	"O`ZLITINEFTGAZ" AKSIYADORLIK JAMIYATI	444	12		1	2	1	7	1	
24	202266595	KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI	438	29		4	4	2	18	1	
25	305314198	"IMPALL TRADING" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	407	29		4	4	2	18	1	
26	206942764	CHET EL KAPITALI ISHTIROKIDAGI "INVEST FINANCE BANK" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI	399	31	2	4	4	2	18	1	
27	305599445	"LAND HOUSE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	307	27		4	2	3	18		
28	303454334	"SARDOBA TEMIR YO`L AGROSANOAT MAJMUASI" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	273	26		4	2	1	18		1
29	203291914	"2-SON OILAVIY POLIKLINIKASI"	257	23		2	2	2	15	1	1
30	307758823	"BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	249	18		2	2	1	12	1	
31	303314262	"AVTOYO'L SANOAT INVEST" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	248	19	1	2	2	1	12	1	
32	207002342	"MY-INSURANCE" AKSIYADORLIK JAMIYATI	243	17		2	2	1	12		
33	304875292	"SURHAN GAS CHEMICAL OPERATING COMPANY" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	242	18		2	2	1	12	1	
34	305810222	"GAZLI GAS STORAGE" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	242	11		1	1	1	8		
35	201052150	"BOSHTRANSLOYIHA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	234	13	1	1	1	1	8	1	
36	201155648	TOSHKENT TEMIR YO'L TEXNIKUMI	229	11		1	1	1	8		
37	309205575	"NATURAL PEYZAJ" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	228	12	1	1	1	1	8		
38	200849210	406-SON IXTISOSLASHTIRILGAN QURILISH-MONTAJ POEZDI	223	20		4	2	1	12	1	
39	200846104	"14-SON RELS PAYVANDLASH POEZDI" UNITAR KORXONA	218	10		1	1	1	6	1	
40	306421208	"LC WAIKIKI RETAIL TASHKENT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	216	11	1	1	1	1	6	1	

41	201756699	"O`ZBEKISTON TEMIR YO`LLAR" AJ SOG`LIQNI SAQLASH XIZMATI YO`L BOLALAR KASALXONASI"	215	11	1	1	1	1	6	1	
42	207164728	"MIRONSHOX KOMFORT SERVIS" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	213	10	1	1	1		6	1	
43	306302569	"GEO RESEARCH AND DEVELOPMENT COMPANY" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	208	13	1	1	1	1	8	1	
44	201222019	"O'ZBEKISTON DAVLAT AKADEMIK RUS DRAMA TEATRI" DAVLAT MUASSASASI	203	12	1	1	1		8	1	
45	203286318	"1-SON OILAVIY POLIKLINIKA" DAVLAT MUASSASASI	201	13	1	1	1	1	8	1	
46	201427403	SHARQTEHENERGOTA`MIR	200	12		1	1	1	8	1	
47	201052959	"AXBOROTLASHTIRISH BOSH MARKAZI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	196	13	1	1	1	1	8	1	
48	200547444	"O'ZBEKISTON MILLIY AXBOROT AGENTLIGI-O'ZA" DAVLAT MUASSASASI	193	13	1	1	1	1	8	1	
49	201052199	"ISSIQLIKELEKTRLOYIHA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	183	12	1	1			8	2	
50	203740385	"SHAHAR BOLALAR RUXIY ASAB KASALLIKLARI MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	178	13	1	1	1	1	8	1	
51	207027936	"UZDIGITAL TV" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	173	12	1	1	1		8	1	
52	304636494	EXPRESS BUSINESS RESOURCE SERVICE	172	7		2	1		4		
53	204569572	"IPLUS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	170	9		2	1	1	5		
54	304727959	"QUANTO SERVICING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	166	8		2	1	1	4		
55	301230282	"SANFA PRODUCTS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	164	8		1	2	1	4		
56	305083692	"FUTURE TRADING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	158	10		2	2	1	4	1	
57	205327872	"HUAWEI TECH INVESTMENT TASHKENT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT SHAKLIDAGI XORIJIY KORXONA	156	10	1	2	1	1	4	1	
58	206480731	"M.V.LOMONOSOV NOMIDAGI MOSKVA DAVLAT UNIVERSITETI TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI"	149	10	1	2	2	1	4		
59	202472894	"O`ZTEMIRYO`LYO`LOVCHI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	143	9	1	1	1	1	4	1	
60	201051975	"TOSHTEMIRYO'LLOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	138	7		1	1	1	4		
61	205442074	"TASHKENT TOBACCO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	137	7		1	1	1	4		
62	307670998	"SMART SOLUTIONS HR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	130	7		1	1	1	4		
63	201053918	"O'ZAVTOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI	114	8	1	1	1	1	4		
64	207094087	"SHOX MED CENTER" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	111	8		1	1	1	4	1	
65	302381768	"GANGA HEALTHCARE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	111	7		1	1	1	4		
66	206786627	TRANSGAZINJINIRING	110	7		1	1	1	4		
67	203460085	"5-SON TUMANLARARO FTIZIATRIYA DISPANSERI" DAVLAT MUASSASASI	101	7		1	1	1	4		
68	201228294	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI IMMUNOLOGIYA VA INSON GENOMIKASI INSTITUTI	100	7		1	1	1	4		
69	203597175	"FEDOROVICH KLINIKASI " MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	98	4				1	3		
70	202288236	"KAFOLAT SUG`URTA KOMPANIYASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	96	6	1		1	1	3		

71	305368621	"GLOBAL-BUILDING-GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	90	6		1	1		4		
72	305811617	"DANIEL HILL HOTEL" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	89	4		1			3		
73	203393350	7-SON BOLALAR STOMATOLOGIYA POLIKLINIKASI	87	5	1	1			3		
74	206996319	"AVTOSANOAT-INJINIRING" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	85	7		1	1	1	4		
75	303471401	"MIKA TRADE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	83	5		1	1	1	2		
76	201249893	"RESPUBLIKA TERI-TANOSIL KLINIK KASALXONASI" DAVLAT MUASSASASI	82	6	1	1		1	3		
77	201453166	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI "ADOLAT" MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	82	3		1		1	1		
78	201534634	TEMIRYO'LCHILAR MADANIYAT SAROYI	80	7	1	1	1	1	3		
79	305655099	"KAFOLAT HAYOT INSURANCE" AKSIYADORLIK JAMIYATI	80	5		1	1		3		
80	305445201	"MUXAYYO TRADE" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	77	5	1	1			2	1	
81	205340218	"AVTOMOBIL YO'LLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI" UNITAR KORXONA	76	4		1			2	1	
82	303015365	MILLIY TELEKANAL	74	6		1	1	1	3		
83	304131404	"SMART SCHOOL" NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI	73	5		1	1	1	2		
84	306776074	"TBC FIN SERVICE" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	70	2		1			1		
85	305006518	"COTTON TEXTILE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	69	5		1			2	2	
86	300659849	TOSHKENT SHAHAR MADANIYAT BOSH BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI MIROBOD TUMANI 12-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI	61	4		1	1	1	1		
87	200985272	"MIROBOD DEHQON BOZORI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	50	3		1			1	1	
88	204799073	"MILLIY PR-MARKAZI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	43	3		1	1		1		
89	201981199	"EFENDI CO LTD"" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	42	4		1	1	1	1		
90	203404350	"94-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	139	5	1		1	1	2		
91	204655750	"294-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	109	5	1	1	1		2		
92	204655743	"263 SONLI UMUMIY ORTA TALIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	108	4			1	1	2		
93	204655671	"175-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	86	4		1		1	2		
94	204655767	"214-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	83	4		1	1		2		
95	204655664	"158-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	82	4		1	1		2		
96	201534642	"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI AVTOXO'JALIGI" DAVLAT MUASSASASI	131	9		1	1		2	5	
97	204656171	"147 SONLI UMUMIY ORTA TALIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	65	3		1	1		1		
		Jami	40142	1626	48	208	155	127	983	91	14